



UDK:37.016:811; 37.035.6; 316.6:37

Xurshida O'LJAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika institute tayanch doktoranti
E-mail:khurshidakhon95@gmail.com

JizDPU professori, f.f.d G.Jumanazarova taqrizi asosida

ONA TILI O'QITISHDA SANOGEN TAFAKKUR VA "SOFT SKILLS" KO'NIKMALARINING INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili ta'limida sanogen tafakkur elementlari va "soft skills" ko'nikmalarini integratsiya qilishning nazariy asoslari va amaliy natijalari yoritilgan. Shahrisabz davlat pedagogika institutining "Pedagogika" fakulteti 4-21 guruhi talabalari ishtirokida tajriba o'tkazilib, 32 nafar talaba baholash jarayoniga jalb etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sanogen tafakkur va yumshoq ko'nikmalarni dars jarayoniga qo'shish nafaqat akademik bilimlarni, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham samarali oshiradi.

Kalit so'zlar: Ona tili, sanogen tafakkur, soft skills, integratsiya, maktab ta'limi

ИНТЕГРАЦИЯ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ И «SOFT SKILLS» В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В статье рассмотрены теоретические основы и практические результаты интеграции элементов саногенного мышления и навыков «soft skills» в процесс обучения родному языку. Эксперимент был проведён с участием 32 студентов 4-21 групп педагогического государственного педагогического института. Результаты исследования показали, что включение саногенного мышления и мягких навыков в образовательный процесс способствует не только повышению академических знаний, но и развитию личностных, социальных и эмоциональных компетенций учащихся.

Ключевые слова: Родной язык, саногенное мышление, soft skills, интеграция, школьное образование.

INTEGRATION OF SANOGENIC THINKING AND "SOFT SKILLS" IN NATIVE LANGUAGE TEACHING

Annotation

This article explores the theoretical foundations and practical outcomes of integrating elements of sanogenic thinking and soft skills into native language teaching. An experiment was conducted with the participation of 32 students from groups 4-21 of the Pedagogical Department of the Shahrisabz State Institute. The findings indicate that incorporating sanogenic thinking and soft skills into the learning process not only improves academic performance but also enhances students' personal, social, and emotional development.

Key words: Native language, sanogenic thinking, soft skills, integration, school education.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta'lim tizimida talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, ona tili o'qitishda sanogen tafakkurni rivojlantirish va uni "soft skills" deb ataluvchi kommunikativ, ijtimoiy-emotsional hamda ijodiy ko'nikmalar bilan integratsiya qilish o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

Sanogen tafakkur — bu insonning ijobiy fikrlash, muammolarni oqilona hal etish va psixologik barqarorlikni saqlash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tafakkurni rivojlantirish orqali talabalar o'z-o'zini anglash, stressga bardoshlilik, qaror qabul qilishda mas'uliyatlilik kabi sifatlarni egallaydilar. "Soft skills" esa — muloqot, jamoada ishlash, ijodkorlik, vaqtni boshqarish va yetakchilik kabi hayotiy muhim kompetensiyalar majmuasi bo'lib, ular har qanday mutaxassislikda muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

Ona tili ta'limi nafaqat til qoidalarini o'rgatish, balki talabani shaxs sifatida rivojlanishida muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi. Sanogen tafakkur va "soft skills"ni o'zaro uyg'unlashtirish esa ona tili darslarini yanada interfaol, samarali va zamon talablariga mos bo'lishini ta'minlaydi. Bunday integratsion yondashuv talabalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, ularning kelajak kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Shu sababli, ushbu maqolada ona tili o'qitishda sanogen tafakkur va "soft skills" ko'nikmalarining integratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan yoritilib, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning nutqlarida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik hamda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi [1]. Shu bilan birga, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [2] va Vazirlar Mahkamasining qarorlari [3] ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish, uni hayotiy kompetensiyalar bilan boyitish zarurligini belgilab bermoqda.

Xalqaro tadqiqotlar ham sanogen tafakkur va "soft skills"ni ta'limga integratsiya qilishning samaradorligini ko'rsatmoqda. Masalan, J. Durlak va hamkorlarining meta-tahlili 213 ta SEL (social-emotional learning) dasturini qamrab olib, 270 mingdan ortiq o'quvchilarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish, o'qish natijalari va ijobiy xulq ko'rsatkichlarida sezilarli o'sishni aniqlagan [4]. CASEL markazining boshqa tadqiqotlari ham SEL dasturlarining uzoq muddatli natijalari barqarorligini tasdiqlaydi [5].

21-asr ta'limi kompetensiyalari konsepsiyasida kommunikatsiya, hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash

alohida o'rin tutadi. P21 ramkasi ta'lim jarayonini aynan shu ko'nikmalar asosida loyihalashni taklif etadi [6]. Cambridge University Press tomonidan ishlab chiqilgan Life Competencies Framework esa til ta'limi jarayonida kommunikatsiya va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish uchun aniq bosqichli metodik yo'l-yo'riqlarni beradi [7]. British Council esa "Core skills" dasturi orqali global fuqarolik, kreativ fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida belgilagan [8].

OECD hisobotlarida ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar o'quvchilarning akademik natijalari, mehnat bozori raqobatbardoshligi va salomatligi bilan uzviy bog'liq ekani ko'rsatiladi [9]. Bu ma'lumotlar ta'limda "soft skills"ni rejalashtirish va baholash mexanizmlarini joriy etishning muhimligini ta'kidlaydi.

Sanogen tafakkur tushunchasi Yu.M. Orlov tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, u inson tafakkurining konstruktiv, psixologik sog'lom bo'lishi, stressga bardoshlilikni shakllantirishi bilan izohlanadi [11]. Zamonaviy ilmiy maqolalar sanogen tafakkurning ta'lim jarayoniga qo'llanilishi talabalarida refleksiya, emotsiyalarni boshqarish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkonini berishini ko'rsatmoqda [13].

Til o'qitishda "soft skills" integratsiyasi bo'yicha tadqiqotlar ham boy. Xususan, EFL o'qituvchilari malakasida "soft skills" darajasi ularning samaradorligini bevosita belgilashini ko'rsatadi [15]. Shuningdek, bu ko'nikmalarni ESL/EFL universitet ta'limida baholash tizimlariga kiritish bo'yicha metodik izlanishlar olib borilmoqda [16]. Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi esa o'quvchilarda motivatsiya

1-jadval.

Tajriba va nazorat guruhlar natijalari (talabalar soni va foizlarda)

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (boshlang'ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	O'sish	Nazorat guruhi (boshlang'ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	O'sish
Sanogen tafakkur (ijobiy fikrlash topshiriqlarida muvaffaqiyatli bajarganlar soni)	7 talaba (44%)	12 talaba (75%)	31%	6 talaba (38%)	8 talaba (50%)	12%
Soft skills (jamoaviy ishlarda faol qatnashganlar)	6 talaba (38%)	13 talaba (81%)	43%	7 talaba (44%)	9 talaba (56%)	12%
Akademik bilim (test va insho natijalari ≥ 4 ball olganlar)	8 talaba (50%)	13 talaba (81%)	31%	8 talaba (50%)	10 talaba (63%)	13%

Akademik bilim ko'rsatkichlari grammatik testlar va yozma insholardan olingan natijalar asosida aniqlab borildi. Baholash jarayonida 5 balli tizim qo'llanilib, yig'ilgan ballar umumlashtirilgach, foiz ko'rinishiga o'tkazildi. Natijalar keyinchalik tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida taqqoslanib, metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi (1-jadval).

Tahlil va natijalar. Shahrisabz davlat pedagogika institutining "Pedagogika" fakulteti 4-21 guruhi talabalar ishtirokida Shahrisabz shahridagi 4-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'quvchilarida olingan ko'rsatkichlar o'rtasida

va uzoq muddatli o'rganish samaradorligini oshirishga yordam beradi [18].


Til ta'limi amaliyotida Cambridge English tomonidan ishlab chiqilgan Teaching Framework ham "soft skills"ni o'qituvchi kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi [19].

Umuman olganda, milliy va xalqaro adabiyotlar shuni ko'rsatdiki, ona tili o'qitishda sanogen tafakkur va "soft skills" integratsiyasi nafaqat bilim, balki talabalarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi [4]. Shu bois mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish va metodik qo'llanmalarni yaratish ta'lim sifatini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sharoiti. Tajriba Shahrisabz davlat pedagogika institutining "Pedagogika" fakulteti 4-21 guruhi talabalar ishtirokida tajriba o'tkazilib, 32 nafar talaba baholash jarayoniga jalb etildi tashkil etildi. Talabalar teng ikkiga bo'linib, 16 nafardan tajriba va nazorat guruhlar shakllantirildi. Tajriba guruhida o'quv mashg'ulotlari sanogen tafakkur elementlari va "soft skills" ko'nikmalari bilan boyitilgan holda olib borildi, nazorat guruhida esa an'anaviy uslubda o'qitish davom ettirildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash uchun maxsus baholash mezonlari ishlab chiqildi. Sanogen tafakkur ko'rsatkichlari ijobiy fikrlash topshiriqlari, stressli vaziyatlarga munosabat yozish hamda ijobiy-ijodiy gaplar tuzish orqali o'lchandi. Soft skills darajasi esa jamoaviy munozaralarda ishtirok etish, hamkorlikda matn yozish va rolli o'yinlardagi faollik orqali baholandi.

sezilarli farqlar mavjud. Tadqiqot boshida ikkala guruhning bilim va ko'nikmalari deyarli teng darajada bo'lgan bo'lsa, tajriba mashg'ulotlari yakunida tajriba guruhi sezilarli ustunlikka ega bo'ldi.

Sanogen tafakkur ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba guruhida ijobiy natijalar kuzatildi. O'quvchilarning stressli vaziyatlarda o'zini tutish madaniyati, ijobiy fikr bildirish va konstruktiv yondashuvlari ancha oshgani qayd etildi. Dastlabki bosqichda faqatgina 7 nafar o'quvchi yuqori ball olgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 12 nafarga yetdi, ya'ni umumiy natija 44 foizdan 75 foizga oshdi. Nazorat guruhida esa o'sish 38 foizdan 50 foizga yetib, sezilarli farq bermadi.



1-diagramma. Tajriba va nazorat natijalari taqqoslanishi

Soft skills – ya'ni muloqot, hamkorlik va ijodiy faoliyat ko'nikmalari ham tajriba guruhida sezilarli darajada rivojlandi. Guruh mashg'ulotlari, jamoaviy yozma ishlar va rolli o'yinlarda o'quvchilarning ishtiroki yuqori bo'ldi. Natijada tajriba guruhida faol o'quvchilar soni 6 nafardan 13 nafarga oshib, 81 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa faollik 44 foizdan atigi 56 foizgacha ko'tarildi.

Akademik bilim natijalarida ham ijobiy o'sish kuzatildi. Grammatik testlar va yozma insholarda yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar soni tajriba guruhida 8 nafardan 13 nafarga oshib, 81 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ko'rsatkich 50 foizdan 63 foizgacha ko'tarildi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi barcha yo'nalishlarda o'rtacha 30 foiz atrofida o'sishga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida o'sish 10–13 foizdan oshmagan. Bu esa ona tili ta'limida sanogen tafakkur va "soft skills" integratsiyasi samarali metod ekanligini, u nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham ta'minlashini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa. Shahrisabz davlat pedagogika institutining "Pedagogika" fakulteti talabalari ishtirokida olib borilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, ona tili o'qitish jarayonida sanogen tafakkur elementlari va "soft skills" ko'nikmalarini integratsiya qilish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va shaxsiy rivojlanishida sezilarli ijobiy natijalar berdi. Tajriba guruhi

talabalarida ijobiy fikrlash, stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, jamoada hamkorlikda ishlash va ijodiy fikr bildirish darajasi yuqorilagan bo'lsa, akademik bilim natijalari ham nazorat guruhiga nisbatan ikki barobar ko'proq o'sdi. Bu esa integratsion yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga talabalarning psixologik barqarorligi va ijtimoiy faoliyatini ham mustahkamlashini isbotladi.

Takliflar. Ona tili darslariga sanogen tafakkur mashqlarini (ijobiy fikrlash topshiriqlari, stressni boshqarish metodlari, kreativ yozuv mashqlari) muntazam kiritish.

"Soft skills" ko'nikmalarini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqish va ularni har chorak yakunida tekshirish.

Talabalarda kommunikatsiya va jamoaviy ishlashni kuchaytirish maqsadida rolli o'yinlar, munozaralar va loyiha asosidagi topshiriqlarni ko'paytirish.

O'qituvchilar uchun maxsus seminar-treninglar tashkil etib, ularga sanogen tafakkur va soft skills integratsiyasini o'quv jarayoniga kiritish bo'yicha metodik qo'llanmalar berish.

Kelgusida tajribalarni nafaqat alohida guruhlarda, balki turli yoshdagi o'quvchilar va boshqa fanlarda ham qo'llash orqali kengroq taqqoslash va samaradorlikni chuqurroq o'rganish.

Maktablarda raqamli texnologiyalarni jalb etgan holda, soft skills va sanogen tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol platforma va elektron resurslarni joriy qilish.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: xalqaro konferensiyadagi nutq. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 23-sentabr, №3PY-637.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Ona tili va adabiyot ta'limini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaror. – Toshkent, 2019.
4. Durlak J.A., Weissberg R.P., et al. The impact of enhancing students' social and emotional learning. // Child Development. – 2011. – Vol. 82(1). – P. 405–432. DOI:10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x.
5. CASEL. Meta-analysis summary: Follow-up effects of SEL programs. – Chicago: CASEL, 2017. – 32 p.
6. Battelle for Kids. Framework for 21st Century Learning: Definitions. – Washington, 2019. – 40 p.
7. Cambridge University Press. The Cambridge Life Competencies Framework. Introduction guide. – Cambridge, 2018. – 25 p.
8. British Council. Unlocking a world of potential: Core skills for learning, work and society. – London: British Council, 2016. – 56 p.
9. OECD. Social and Emotional Skills for Better Lives. Technical report. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 120 p.
10. OECD. Survey on Social and Emotional Skills (SSES) Phase II Results. – Paris: OECD, 2024. – 95 p.
11. Орлов Ю.М. Саногенное мышление: психологические основы. – Москва: Наука, 2005. – 240 с.
12. Psychological Aspects of Sanogenic Thinking // Publishing Journals. – 2024. – №3. – С. 115–127.
13. Reflective approach to the development of students' competences // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2018. – Vol. XL. – P. 250–258.
14. Integrating Soft Skills in EFL Teacher Education // ResearchGate. – 2020. – DOI:10.13140/RG.2.2.19453.54249.
15. Soft Skills and EFL Effective Teaching // Journal of Applied Linguistics and Humanities Social Science. – 2024. – №2(6). – P. 45–56.
16. Interweaving employability skills in ESL/EFL university assessment: a systematic review // ERIC. – 2024. – №ED632184.
17. TESOL & digital technology for attitudinal change and long-term learning // NCBI/PMC. – 2023. – PMC112345.
18. Teaching Framework: Full level descriptors. – Cambridge: Cambridge English, 2020. – 35 p.
19. Muravyev A. Managerial turnover and performance of privatized firms in Russia. – Munich: MPRA Paper №27230, 2010. – 28 p.